


**AHOLIGA TIBBIY YORDAM KO'RSATUVCHI MUASSASALAR FAOLIYATI  
TO'G'RISIDA**


Viloyatda 2021- yil 1- yanvar holatiga shifoxona muassasalar soni 54 ta bo'lib, ulardan o'rinnlar soni 5259 tani tashkil etdi. Shifoxonalarda jami 418410 ta bemorlar davolangan. Shundan Jizzax shahrida 166750 tasi (jami davolangan bemorlarga nisbatan 39,9 %) ni, Sharof Rashidov tumanida 47419 tasi (11,3 %), Zomin tumanida 34950 tasi (8,4 %), 32137 tasi (7,7 %) G'allaorol tumanida, 21379 tasi (5,1 %) Forish tumanida, 24538 tasi (5,9 %) Baxmal tumanida, 20336 tasi (4,9 %) Paxtakor tumanida, 15085 tasi (3,6 %) Zarbdor tumanida, 17453 tasi (4,2 %) Do'stlilik tumanida, 14484 tasi (3,5 %) Mirzacho'l tumanida, 8309 tasi (2,0 %) Zafarobod tumanida, 8385 tasi (2,0 %) Yangiobod tumanida, 7185 tasi (1,7 %) Arnasoy tumanlarida davolangan.



Jizzax viloyati bo'yicha 2021-yil 1-yanvar holatiga 184 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari mavjud bo'lib, eng ko'pi Jizzax shahrida 68 ta (jami ambulatoriya- poliklinikalarga nisbatan 37,0 % ni tashkil etadi), Sharof Rashidov tumanida 15 ta (8,2 %) ni, G'allaorol tumanida 13 ta (7,1 %) ni, Zomin tumanida 19 ta (10,3 %) ni, Baxmal tumanida 17 ta (9,2 %) ni tashkil qiladi.


## Tibbiyot xodimlar soni, kishida

Viloyat bo'yicha 2021-yil 1-yanvar holatiga jami 2272 ta shifokorlar mavjud bo'lib, shundan 751 tasi (35,4 %) ayollar hissasiga to'g'ri keladi. Shifokorlarning 85 % ni Jizzax shahar, Baxmal, G'allaorol, Sharof Rashidov, Zomin, Paxtakor va Forish tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.



Ambulatoriya – poliklinika muassasalarining bir smenadagi quvvati,  
ming kishi

Sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, samaradorlikni oshirish maqsadida olib borilayotgan islohatlar natijasida mustaqillik yillarida statsionar shifoxona muassasalarida ham tarkibiy o'zgartirishlar amalga oshirildi, natijada 2020- yildagi shifoxona, statsionar muassasalar soni 2019- yilga nisbatan 1,0 % kamaydi. Shifoxonalardagi shifo o'rinnlar soni 2019- yil 4,1 mingni tashkil qilgan bo'lsa, 2020- yilda 4,2 ming o'rinni tashkil qildi.




Jizzax viloyatida hududlar bo'yicha aholining kasalliklarga chalinishi,  
ming kishi.


Viloyatda 2020- yilda ambulatoriya-poliklinika muassasalarida qayd qilingan kasalliklar soni 463388 tani tashkil etgan, shundan 14 yoshgacha bolganlari 105001 tasini (jami kasalliklar soniga nisbatan 24,9 %) bolib, 15-17 yoshgacha bolganlari 35293 tashkil etadi va (8,3%)ni 18-yosh va kattalari 323094 tasi va (66,8 %) ni tashkil etadi.



Yosh guruhlari bo‘yicha kasalliklar soni,kishida



Qayd qilingan kasalliklar soni bo‘yicha eng ko‘p Jizzax shahrida (jami kasalliklar soniga nisbatan 33,4 %), Zomin tumani (11,0 %), Forish tumani (10,9 %), Paxtakor tumani (7,8 %), Sharof Rashidov tumani (6,4 %), Baxmal tumani (6,1 %), G‘allaorol tumani (6,0 %), Mirzacho‘l tumani (5,3 %), Zarbdor tumani (5,0 %), Yangiobod tumani (2,5 %), Zafarobod tumani (2,1 %), Arnasoy tumani (1,8 %), Do‘stlik tumani (1,7 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.



Viloyatda 2020- yilda shifoxona va ambulatoriya-poliklinika muassasalarida jami 2,3 ming shifokor va shu bilan bir qatorda 12,6 ming nafar o‘rta tibbiyot xodimlari aholiga xizmat ko‘rsatdi. 2020- yilda har 10 ming aholiga to‘g‘ri keladigan shifokorlar soni 15 tani tashkil qilgan bo‘lsa, har 10 ming aholiga to‘g‘ri keladigan o‘rta tibbiyot xodimlari soni esa 90 tani tashkil qildi.

Aholining tibbiyot xodimlari bilan ta’minlanishi

| Yillar        | Jami shifokorlar soni (ming kishi) | Har 10 ming aholiga to‘g‘ri keladigan shifokorlar soni | Jami o‘rta tibbiyot xodimlari soni (ming kishi) | Har 10 ming aholiga to‘g‘ri keladigan o‘rta tibbiyot xodimlari soni |
|---------------|------------------------------------|--|---|---|
| <b>2000-y</b> | 2,2                                | 22   | 9,1   | 91,8  |
| <b>2005-y</b> | 2,1                                | 20   | 9,4   | 89,7  |
| <b>2010-y</b> | 1,9                                | 17   | 10,4  | 91,5  |
| <b>2017-y</b> | 2,1                                | 16   | 12,5  | 94,3  |
| <b>2020-y</b> | 2,3                                | 15   | 12,6  | 90  |

Ijtimoiy soha statistikasi bo‘limi

(72) 221-51-36

(72) 222-81-36